

## DEMOGRAFIK HOLAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning 1-yanvar holatiga Nurota tumani doimiy aholi soni 88,0 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 1,3 ming kishiga yoki 1,5 foizga ko'paydi.


### Doimiy aholi soni

(2023- yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)

	Jami aholi soni	shu jumladan:	
		erkaklar	ayollar
Navoiy viloyati	1 055,5	534,8	520,7
Nurota tumani	88,0	45,2	42,8

### Nurota tumanining doimiy aholi sonida erkak va ayolning ulushi

(2023- yil 1-yanvar holatiga, foizda)



Shuningdek, 2023-yilning 1-yanvar holatiga Nurota tumanida 51,4 % erkaklar va 48,6 % ni ayollar tashkil etgan. Demak, Nurota tumanida erkaklar soni ayollar soniga nisbatan ko'proq ekanligini kuzatishimiz mumkin.

**Aholining tabiiy harakati**  
(yanvar-dekabr oylari)

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 aholiga, nisbatan</i>	
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil<sup>1)</sup></i>	<i>o‘sish, kamayish</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil<sup>1)</sup></i>
Tug‘ilganlar	2437	2157	-280	28,4	24,7
O‘lganlar	451	388	-63	5,2	4,4
Tabiiy o‘sish	1 986	1 769	-217	23,2	20,3
Nikohlar	802	724	-78	9,3	8,3
Ajralishlar	58	78	20	0,7	0,9


**Tug‘ilish darajasi.** 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 2157 kishini tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga (2437 kishi) nisbatan 280 taga kamaydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 24,7 promilleni tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga (28,4 promille) nisbatan 3,7 promillega kamaydi.

**O‘lim darajasi.** 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida vafot etganlar soni 388 kishini tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga (451 kishi) nisbatan 63 taga o‘limlar soni kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,4 promilleni tashkil qildi va 2021-yil yanvar-dekabrga (5,2 promille) nisbatan 0,8 promillega kamaydi.

**Tabiiy o‘sish.** Yuqoridagi jadvaldan shuni kuzatishimiz mumkinki 2022-yilning yanvar-dekabr holatiga tabiiy o‘sish 1769 kishini tashkil qildi va (2021-yilning shu davri 1986 kishi)ga nisbatan 217 kishiga kamayganligini kuzatishimiz mumkin.


<sup>1)</sup>dastlabki ma’lumot

**Aholining tabiiy harakati**  
(yanvar-dekabr oylarida kishi, birlikda)




**Nikohlar va ajralishlar.** 2022-yilning yanvar-dekabrda FHDYO organlarida 724 ta nikohlar va 78 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. ming aholiga nisbatan 8,3 ga nikoh (2021-yilning tegishli davrida 9,3 ga) va 0,9 ga ajralishlar (2021-yilning tegishli davrida 0,7 ga) to'g'ri keladi.

**Nurota tumani bo'yicha tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar bo'yicha ma'lumot**  
(birlikda) (yanvar-dekabr holatiga)



**Migratsiya.**Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Nurota tumani bo'yicha ko'chib kelganlar soni 228 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 684 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 456 kishiga (2021-yilning shu davrida qoldig'i minus 541 kishi) teng bo'ldi.

**Aholining migratsiya ko'rsatkichlari**  
(yanvar-dekabr oylarida kishi, birlikda)



**Nurota tumanining ijtimoiy ko'rsatkichlari**  
(2023- yil 1-yanvar holatiga)

	Soni		Koeffitsienti, 1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil
Doimiy aholi soni, (ming kishi)	86,7	88,0	x	x
Aholining tabiiy o'sishi (kishi)	1 986	1 769	23,2	20,3
Tug'ilganlar (kishi)	2 437	2 157	28,4	24,7
Vafot etganlar (kishi)	451	388	5,2	4,4
Tuzilgan nikohlar (kishi)	802	724	9,3	8,3
Nikoxdan ajralishlar (kishi)	58	78	0,7	0,9
Ko'chib kelganlar (kishi)	266	228	3,1	2,6
Ko'chib ketganlar (kishi)	807	684	9,4	7,8